

AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINING AHAMIYATI VA ASOSIY JIHLARI

Yax'yaeva D.B.

*Toshkent To'qimachilik va Yengil Sanoat
Instituti Katta o'qituvchisi*

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga qaratiladigan e'tibor oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 23 iyulida qabul qilingan “Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi”gi PQ-4400 sonli Qarorida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan aholi moliyaviy savodxonligini oshirish sohasidagi ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda aholi moliyaviy xizmatlar ommabopligini kengaytirishni va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishni, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni nazarda tutuvchi “Moliyaviy ommaboplikni oshirishning milliy strategiyasi”ni ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.[1]

Shu o'rinda Prezidentimiz SH.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Haqiqatan ham, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz” deya ta'kidlashi aholi orasida tadbirkorlik faoliyatini keng targ'ib etish, har bir fuqaroning bu boradagi imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Ko'pchilik moliyaviy savodxonlik tushunchasini jahonda tan olingan umumiy ta'rifga asosan tushunadi. Ya'ni, tor ma'noda moliyaviy savodxonlik – fuqarolarning o'z (yoki oilasi) moliyasini to'g'ri boshqarishi uchun zarur bilim va ko'nikmalar majmuasi, deb ta'rif berilgan bo'lib, bizning jamiyatda ham ushbu iboraning umum qabul qilingan ta'rifi taxminan shunday. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) "Moliyaviy savodxonlik - bu shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish uchun asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi xabardorlik, bilim, ko'nikma, qadriyatlar (hayotiy yo'nalishlar) va xulq-atvor kabi elementlarning majmui" deb ta'rif bergan .

O'z nomidan kelib chiqqan holda, mazkur tushuncha moliya sohasidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, u bilan bog'liq jarayon va voqealarni to'g'ri tushunishni anglatadi. Biroq, fikrimizcha, mazkur tarzidagi dastlabki tasavvur darajasida qolish moliyaviy savodxonlikning to'liq mazmunini yoritib bera olmaydi. Shuning uchun, ushbu tushuncha bilan bog'liq asosiy jihatlarni aytib o'tish kerak. Demak, “moliyaviy savodxonlik” – aholining kundalik hayotidagi oddiy iqtisodiy voqea va jarayonlar (masalan, oziq-ovqat va uy-ro'zg'or buyumlarini xarid qilish, turli resurslar (elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi) va kommunal xizmatlardan foydalanganlik uchun to'lovlarni amalga oshirish, xususiy yoki davlat sektorida mehnatda band bo'lish, ish haqi yoki nafaqa olish va h.k.)dan tortib nisbatan murakkab jarayonlar (masalan,

tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, tijorat banklari kreditlaridan foydalanish, qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqalar)da ishtirok etishigacha bo'lgan jihatlarni qamrab olishini bilib oldik. Mamlakatda aholi moliyaviy savodxonligi darajasining yuqori bo'lishi moliyaviy xizmatlar sohasining ham jadal rivojlanishiga sabab bo'ladi. Moliyaviy xizmatlarni ommalashtirish orqali aholining bu boradagi bilimlarini mustahkamlash va kichik biznes sub'ektlarining bunday xizmatlarga bo'lgan talabini oshirish imkoni paydo bo'ladi. [2]

Bu o'z navbatida, iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim omili hisoblangan fuqarolarning hayot sifati va farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Aholi moliyaviy savodxonligining mazmuni va ahamiyatini ochib berishda uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va muayyan tizimga solish muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra u quyidagi omillarni ajratib ko'rsatadi:

- 1) mamlakatdagi iqtisodiy ta'lim darajasi;
- 2) moliyaviy infratuzilmaning mavjudligi va rivojlanganlik darajasi;
- 3) aholining iqtisodiyotga ishonchi darajasi;

4) moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari. Fikrimizcha, aholi moliyaviy savodxonligi tushunchasi o'ta darajada umumlashtirilgan mazmun kasb etib, uni moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning yuqorida keltirilgan tasnifi to'liq ifodalay olmaydi. Uning mazmun-mohiyatiga chuqurroq kirib borish o'z navbatida mazkur tushunchaning turli (masalan, alohida shaxs, muayyan hudud aholisi, mamlakat aholisi) darajalarini tabaqalashtirishni taqozo etadi. Aholi turmush darajasi va farovonligining oshishi ko'p jihatdan fuqarolarning iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ongli ravishda munosabatda bo'lishi, iqtisodiy tafakkur va ko'nikmalarning rivojlanishiga bog'liq. Chunki, fuqarolar qanchalik yuqori iqtisodiy faollik va moliyaviy savodxonlikka ega bo'lsa, ularning iqtisodiy faoliyati, hayotning turli jabhalarida qabul qilayotgan qarorlari shu darajada samarali bo'ladi. Ayniqsa, moliyaviy savodxonlik mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining rivojlanishiga, tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga qulay imkon yaratadi.[3]

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida bozor munosabatlarining shakllanish jarayonlari yanada jadalroq tus olmoqda, iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tartibga solishda bozor mexanizmlaridan foydalanish salmog'i sezilarli ravishda ortib bormoqda. Iqtisodiy resurslardan foydalanish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kabi muhim jihatlarga ko'proq moddiy manfaatdorlik, rag'batlantirish, iqtisodiy dastaklarni ishga tushirish orqali yondoshilmoqda.

Chunki, alohida shaxsning moliya borasidagi bilim va ko'nikmalari pirovardida butun jamiyat iqtisodiy hayotining muvaffaqiyati va barqarorligini belgilab beradi. Axolining moliyaviy jihatdan savodsizligi nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki butun moliyaviy sohaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fuqarolarning o'z daromadlari va xarajatlarini aniq tasavvur qilmasligi yoki noto'g'ri rejalashtirishi oqibatida kreditorlik qarzdorlik paydo bo'ladi, savodsizlik, yuqorida misollar keltirganimizdek, moliyaviy piramidalar va

firibgarliklar sonining oshishiga olib keladi. Global miqyosda bu mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy inqirozga olib kelishi mumkin. O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish global ahamiyat kasb etuvchi masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu borada Markaziy bank, Savdo-sanoat palatasi va boshqa bir qancha davlat va nodavlat tashkilotlarining loyxalari amalga oshirib kelmoqda.[4]

Aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholashning turli metodologik yondashuvlar bo'yicha qator xalqaro moliyaviy tashkilotlar iqtisodchi ekspertlari tomonidan turli yo'nalishlardagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholash orqali uy xo'jaliklari, oila va individning (shaxsning o'zi) o'z ixtiyoridagi moliyaviy resurslarini boshqara olishi va ularni to'g'ri yo'naltirishdagi samarali qarorlarini baholashga qaratiladi.

O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish global ahamiyat Mamlakatimizda aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishda xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholash amaliyotini inobatga olgan holatda davlatning maqsadi dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- aholining moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar, moliya bozori va uning tarkibiy komponentlari to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;

- moliyaviy xizmatlar va mahsulotlarni sotib olish jarayonida tuziladigan shartnomalarning mohiyatini anglab yetishi, ularda qo'llaniladigan terminologiyalarni tushunishi va o'z haq-huquqlarini himoya qilish bo'yicha aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

- uy xo'jaliklar, oilalar va shaxslarga o'z byudjetlarini shakllantirish, rejalashtirishga oid bilim va ko'nikmalarni muntazam berib borishning universal usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish;

- moliyaviy tashkilotlar bilan turli nizoli holatlar vujudga kelishi vaziyatida fuqarolarni o'z haq-huquqlarini himoya qilishlari va o'zlarini qanday tutishlari lozimligi borasidagi moliyaviy xulqlarini shakllantirish;

- aholining turli ijtimoiy guruhlari uchun mo'ljallangan moliyaviy savodxonlik va uning tarkibiy komponentlarini takomillashtirish bo'yicha turli informatsion va ta'lim dasturlarini ishlab chiqilishi va ularni muntazam tegishli aholi qatlamlari uchun yetkazib borish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 22 dekabr*. – www.uza.uz.
2. *Finansovaya gramotnost`*. - https://ru.wikipedia.org/wiki/Finansovaya_gramotnost`.
3. *Sudakova A.YE. Finansovaya gramotnost`: teoreticheskoe osmislenie i prakticheskoe issledovanie // Finansi i kredit, 2017, t. 23, vip. 26, str. 1563–1582.*
4. *Kuzina O. Finansovaya gramotnost` i finansovaya kompetentnost`: opredelenie, metodiki izmereniya i rezul`tati analiza v Rossii // Voprosi ekonomiki. 2015. № 8. C. 129-148.*